

UNIVERSALITY AND INDIVIDUALITY IN THE USE OF RETARDATION IN THE STYLES OF CHINGIZ AITMATOV AND NORMUROD NORKOBILOV

Bahor Bahriddinovna TURAeva

Doctor of Sciences in Philology, an Associate professor
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan

RETARDATSIYA USULIDAN FOYDALANISHDA CH.AYTMATOV VA N.NORQOBILOV USLUBIGA XOS UNIVERSALLIK HAMDA O'ZIGA XOSLIK

Bahor Bahriddinovna TO'RAYeva

Dotsent, filologiya fanlari doktori
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

УНИВЕРСАЛЬНОСТЬ И ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ СТИЛЯ Ч. АЙТМАТОВА И Н. НОРКОБИЛОВА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПРИЁМА РЕТАРДАЦИИ

Баҳор Баҳриддиновна ТУРАева

Доцент, доктор филологических наук
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан bahorturaeva@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

To'rayeva B.B. Retardatsiya usulidan foydalanishda Ch.Aytmatov va N.Norqobilov uslubiga xos universallik hamda o'ziga xoslik.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B.309-329.

<https://doi.org/10.36078/1762759155>

Received: September 10, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The article analyzes retardation as one of the expressive methods of the chronotope. Retardation is a literary device antithetical to climax, in which the development of the plot is deliberately delayed through the inclusion of extra-plot elements such as depictions of nature and setting, lyrical digressions, philosophical reflections, monologues, dream representations, or repetitive episodes. In literary studies, the term is often used as a synonym for anticlimax (from Greek ἀντί – “opposite” and κλίμαξ – “staircase”). Retardation often appears through the introduction of secondary characters or interpolated episodes, which suspend the rhythm of the narrative. Chingiz Aitmatov's novels “The Day Lasts More Than a Hundred Years”, “The Doomsday”, “Falling Mountains” and “The Brand of Cassandra” as well as Normurod Norkobilov's “In the Steppes and Fields” and “Black Whirlwind”, are analyzed in a comparative and typological perspective using psychological, classificatory, and systemic-structural methods of analyses. The study aims to examine the intertemporal movement of plot lines resulting from the interplay of chronotopic forms; to reveal the writers' mastery in employing retrospection, prospection, and retardation; to explore the interaction among such literary devices as memory, dream, landscape, and portrait; and to explain the role of plot and compositional elements in conveying the chronotope through systemic-structural analysis. The semiotic

realisation of the artistic aesthetics in modern novels is revealed through the writers' skill in character creation, generalization, and typification, as well as through psychological tools such as landscape, portrait, dialogue, inner monologue, hallucination, and dream. The individuality and universality of their styles are expressed in the use of the retardation technique characteristic of epic narration. . At the same time, their shared creative approach to lyrical digressions, introductory episodes, narrative structures, epigraphs, and detailed portraits reveals poetic principles grounded in such compositional means as the hero's past and the parallel or contrasting depiction of landscape.

Keywords: chronotope; retardation; retrospection; prospection; lyrical digression; narration; epigraph; portrait; character depiction.

Annotatsiya. Maqolada retardatsiya xronotopning ifoda usullaridan biri sifatida tahlil qilingan. Retardatsiya — kulminatsiyaga qarama-qarshi adabiy usul bo'lib, matnga syujetdan tashqari elementlar: tabiat va interyer tasvirlari, lirik chekinishlar, falsafiy mulohazalar, monologlar, tush tasviri, bir xil epizodlarni kiritish orqali syujet harakatining rivojlanishi sekinlashtiriladi. Adabiyotshunoslikda antiklimax (yun. ἀντί — “qarama-qarshi” va κλῖμαξ — “zinapoya”) termini bilan sinonim ravishda qo'llaniladi. Retardatsiya odatda ikkinchi darajali personajlar, qistirma epizodning kiritilishi orqali ham yuzaga keladi, syujet voqealarining maromini to'xtatib qo'yadi. Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun”, “Qiyomat”, “Kassandra tamg'asi” va “Qulayotgan tog'lar” romani hamda Normurod Norqobilovning “Dashtu dalalarda”, “Qoraquyun” romanlari qiyosiy-tipologik, psixologik, tasniflash, sistem-struktur metodlari asosida tahlil qilingan. Romanlar voqealari tasvirida xronotopning ifoda usullari — retrospeksiya, prospeksiya va retardatsiyadan yozuvchilarning foydalanish mahorati; esga olish, tush, peyzaj, portret orqali ifoda usullarining qorishuvi natijasida asar syujet chiziqlarining zamonlararo harakatini tahlil qilish; sistem-struktur tahlil orqali syujet va kompozitsiya unsurlarining xronotopni ifodalashdagi o'rnini izohlash va romanlar sarlavhasi aynan badiiy zamon yoki badiiy makon ma'nosini anglatishini aniqlash tadqiqotning vazifasi hisoblanadi. Yozuvchilarning qahramon yaratish mahorati, umumlashtirish va tipiklashtirish xususiyatlari, peyzaj, portret, nutq, ichki monolog, gallyutsinatsiya, tush kabi ruhiy tahlil vositalari asosida zamonaviy romanlar badiiy estetikasining semiotik voqelanishi izohlangan. Epik asarlarga xos kompozitsion usul — retardatsiyadan foydalanishda adiblar uslubidagi individuallik va universallik aniqlanib, lirik chekinish, kiritma voqealar, rivoyat, epigraf, mufassal portret, personaj xarakteristikasini berishda ijodkorlar uslubiga xos mushtaraklik — personajning o'tmishi haqida hikoya qilish, peyzajning parallel va kontrast tasviri kabi kompozitsion vositalarning birlamchi xarakterga egaligi poetik mezonlar negizida asoslangan.

Kalit so'zlar: xronotop; retardatsiya; retrospeksiya; prospeksiya; lirik chekinish; rivoyat; epigraf; portret; personaj xarakteristikasi.

Аннотация. Статья анализирует ретардацию как один из выразительных приёмов хронотопа. Ретардация — это литературный приём, противоположный кульминации, при котором развитие сюжета намеренно замедляется за счёт включения внесюжетных элементов, таких как описания природы и интерьера, лирические отступления, философские размышления, монологи, изображения снов или повторяющиеся эпизоды. В литературоведении этот термин используется как

синоним антиклимакса (от греч. ἀντί — «противоположный» и κλίμαξ — «ступень»). Ретардация часто проявляется через введение второстепенных персонажей или вставных эпизодов, которые приостанавливают ритм повествования. В статье сравнительно и типологически анализируются романы Чингиза Айтматова — «И дольше века длится день», «Плаха», «Когда падают горы» и «Тавро Кассандры», а также произведения Нормурода Норкобилова — «В степях и полях» и «Чёрный вихрь». В исследовании используются психологический, классификационный и системно-структурный методы. Их цель — рассмотреть временное движение сюжетных линий как результат смешанного выражения хронотопа, раскрыть мастерство писателей в использовании ретроспекции, проспекции и ретардации, исследовать взаимодействие таких художественных приёмов, как память, сон, пейзаж и портрет, а также объяснить роль сюжетных и композиционных элементов в передаче хронотопа с позиции системно-структурного анализа. Семиотическая реализация художественной эстетики в современных романах проявляется через мастерство авторов в создании характеров, обобщении и типизации, а также через психологические средства — пейзаж, портрет, диалог, внутренний монолог, галлюцинацию и сон. Индивидуальность и универсальность их стиля выражаются в использовании приёма ретардации, характерного для эпических произведений. В то же время их общность проявляется в творческом подходе к лирическим отступлениям, вставным эпизодам, повествовательным структурам, эпиграфам и детализированным портретам, что отражает поэтические принципы, основанные на таких композиционных средствах, как прошлое героя и параллельное или контрастное изображение пейзажа.

Ключевые слова: хронотоп; ретардация; ретроспекция; проспекция; лирическое отступление; повествование; эпиграф; портрет; характеристика персонажей.

Kirish

Retardatsiya va xronotop bir-biri bilan uzviy bog‘liq badiiy kategoriyalar bo‘lib, ular asardagi zamon va makon dinamikasini, voqealar ritmini hamda badiiy tafakkurning estetik ifodasini shakllantiradi. Retardatsiya — xronotopni kengaytirish va chuqurlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi: syujet harakatini sekinlashtirib, voqelikni teran anglash, qahramonning ichki dunyosi, xotirasi va ruhiy holatini ifoda etish imkonini yaratadi. Bu jarayonda zamon va makonning semiotik munosabati muhim o‘rin tutadi — retardatsiya orqali voqealar zamoni subyektiv tajriba sifatida berilsa, xronotop uni strukturali estetik tizimga aylantiradi. Shunday qilib, retardatsiya xronotopning dinamik vazifasini kuchaytiradi, badiiy zamon sarhadini kengaytiradi va makonni ma’naviy-majoziy mazmunda qayta yaratadi.

Asosiy qism

“Asrni qaritgan kun” romanida “Nayman ona”, “Chingizxonning oq buluti”, “Raymali og‘a va Begimoy” rivoyatlarining qistirma epizod shaklida kiritilishi, Sovet — Amerika “Demiurg” konvensiyasi asosida

koinotga 1–2 va 2–1 paritet fazogirlarining uchirilishi, “hajm jihatidan Yerga teng keladigan geobiologik joyni egallab turgan To‘qayto‘sh sayyorasida aqlli mavjudotlar” [Aytmatov 2019: 131] yashashi haqidagi yondosh syujet chizig‘i, yozuvchining lirik chekinishi va falsafiy mushohadalari, Ukkubola, Edigey, Abutolibning tushi asar voqealarining maromini sekinlashtirgan, parallel syujet chizig‘i harakatlanganda, birinchi syujet voqealari tasviri yozuvchining ijodiy niyatiga ko‘ra butkul to‘xtatilgan. “Qiyomat” romanida Avdiy Kallistratovning Xudo, hayot, insoniylik to‘g‘risidagi mulohazalari, uning o‘tmishi haqidagi retrospektiv xotiralari, “Oltovlon va yettinchi” gruzin balladasining kiritma epizod shaklida ifodalanishi, Pushkin muzeyida Sofiya mug‘anniylarining “Kecha qurboni”, “Sabiylarni tahqirlash”, “Maloyiklar nolasi” kabi Injil ehtirolari din-iymon yo‘lida aziyat va riyozat chekkanlarning og‘ir alangali qo‘shiqlarini kuylash epizodi, Iso Masih va Pontiy Pilat mubohasasi, Bo‘ston O‘rkunchiyev va Akbaraning tushi, portret va peyzaj tasvirlari asosiy syujet voqealarini sekinlashtirgan. “Qulayotgan tog‘lar” romanida Mangu qayliq afsonasi voqealar oqimini sekinlashtirish barobarida yechimga qadar asosiy voqealarga singib ketgan. “Kassandra tamg‘asi” romanida qahramonning falsafiy mushohadalari, portret, peyzaj tasviri, Filofey va Entoni Yungerning maktublari, Borkning tushi syujet voqealarining sekinlashuviga sabab bo‘lgan. Samoviy rohib Filofeyning Rim papasiga yo‘llagan maktubi ikkinchi bobni to‘liq, olti o‘rinda “Xudo haqqi, faksni o‘chira ko‘rmanglar” kirish gapi bilan boshlanuvchi Entoni Yungerning Robert Borkka faks orqali yuborgan jo‘natmalari sakkizinchi bobni qisman tashkil qiladi, epilog esa Filofeyning vido maktubi, “Sen bilan va sendan keyin ko‘rgan-kechirganlarim” sarlavhali tavba-tazarrusi ifodalangan xatlardan iborat. Asarda maktublar syujetning muhim tarkibiy qismlarini, qahramonlarning xarakter-xususiyatini ochib berish vazifasini bajargan. Maktublar qahramonlarni tavsiflashning asosiy vositalaridan biri sifatida Filofeyning insoniyat kelajagi borasidagi tashvishlari, inson genofondi bo‘yicha kosmosdagi kashfiyotlaridan tortib, eksperimental biologiyadagi ixtirolarigacha, hammasining ayanchli oqibatlaridan vijdonining azoblanishi; prezidentlikka nomzodini qo‘ygan Oliver Ordok vaziyatni o‘z tomoniga og‘dirish uchun, uning ta‘biri bilan aytganda, “Yerda turib yelkasini Filofeyga tutadigan, vaziyatni buzadigan, ...suvni loyqalatadigan kishi” [Aytmatov 2016: 156] Robert Borkni darg‘azab olomon girdobiga tashlashi bilan bog‘liq voqealarni ifodalaydi. Maktub xarakterning o‘zligini namoyon qilishning badiiy shakli bo‘lib, unda uning individualligi, o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi.

“Dashtu dalalarda” romanida Eshqul polvonning o‘tmishida ro‘y bergan voqealar — qaynotasi O‘sarqul battol va Farmonov bilan bog‘liq xotiralari, ajdaho haqidagi turli afsonalari, Eshqul polvonning inson va jondorlar haqidagi o‘y-mulohazalari, Bo‘zbo‘ri ba‘zan inson, ba‘zan jondor shaklida tushiga kirishi; Sa‘dulla, rassom, O‘sarqul battolning ayoliga oshiq bo‘lgan yigit va To‘lanboyning ayoli Oygulga oshiq bo‘lgan yigit kabi ikkinchi darajali personajlarning asarga kiritilishi, portret va peyzaj tasviri syujet voqealari maromini susaytiradi.

“Qoraquyun” romanida Donishota rivoyati, Oqbo‘ta va Bardam chol ikkinchi darajali personajlari, Toshpolvon va Bibisora qistirma epizodi,

Qoraqyunning ajdodi Olarit qistirma epizodi, insonlarning tabiatga berayotgan sitamu ozorlari, olam va odam munosabatlari haqida Donishota hamda Qalaybekning mushohadalari, qahramonlar portreti, peyzaj tasvirlari asosiy syujet voqealarining sekinlashuviga sabab bo'lgan.

Romanlarda syujet dinamikasining sekinlashuviga sabab bo'lgan badiiy omillar voqealar maromini boshqarish barobarida dramatism, chuqur lirizm va romantik buyoqdorlikni yuzaga keltirgan. Romanlarda zamon va makon ko'lamining kengayishiga, xarakter qirralarini yorqinroq ochishga, yozuvchining shakl va mazmun birligiga erishishdagi mahoratini ifodalashga, asarning badiiy-estetik ta'sirining kuchli bo'lishiga xizmat qilgan.

Ikkala adib romanlarida ham rivoyat va afsonalar qo'llanilgan, ammo foydalanish uslubida jiddiy farq mavjud. Asosiy syujet voqealariga parallel holda rivoyat va afsonani keltirish Ch. Aytmatovga, o'tmish va hozirni tutashtirish esa N. Norqobilov uslubiga xos. Chingiz Aytmatov romanlarida tarixiy, diniy rivoyatlarni keltirganda, o'z badiiy zamonida erkin harakatlanolmaydi, boisi tarixiy haqiqatni badiiyatga ko'chirishda haqiqatga sodiqlik qonuniyatiga bo'ysunadi. Normurod Norqobilov esa rivoyat va afsonalarning syujetini, motiv va obrazlarini bugungi kun voqealariga singdiradi, ya'ni stilizatsiyalaydi.

Chingiz Aytmatov uslubiga xos jihat shundaki, ba'zan portret va peyzaj tasviri, personaj xarakteristikasini muayyan qahramon tilidan beradi, bu holat asar polifoniyasini ta'minlaydi. N. Norqobilov lirik chekinish, portret, peyzaj tasvirini asosan muallif nutqi orqali ifodalaydi, ammo Ch. Aytmatov uslubi bilan mushtarak jihati shundaki, qahramonlarning ichki va tashqi portretini yaratishda personajlarning ta'rif-tavsiflariga tayanadi. Portretning bir o'rinda to'liq yoki turli o'rinlarda sochma holda ifodalashga ko'ra adiblar uslubida farqlilik kuzatiladi. N. Norqobilov romanlarida portret tasvirini hech qachon bir o'rinda batafsil bermaydi, asarning turli o'rinlarida sochib tashlaydi. Ch. Aytmatov romanlarida esa har ikki jihat namoyon.

K. B. Kubdasheva portretning ikki turini izohlaydi: "Statik portret obyektiv, nisbatan barqaror va o'zgarmas ko'rinish belgilarini: balandlik, gavda tuzilishi, terining rangi, ko'zlar va sochlarni aks ettiradi. Dinamik portret yuz ifodalari va imo-ishoralar, yurish xususiyatlari va tana harakatlari, nutq uslubi (ovoz, intonatsiya, talaffuz) kombinatsiyasini o'z ichiga oladi" [Kubdasheva 2014]. Har ikki adib romanlarida statik va dinamik portret xususiyatlari uyg'unlashadi. Dinamik portret psixologik portret kabi qahramonning ichki dunyosi va hissiy holatini ochib berish usuli bo'lib xizmat qiladi. Adiblar qahramonlar dinamik portretini yaratishda tashqi ko'rinishning batafsil tavsifini bir o'rinda umuman bermaydi, balki belgilarini butun matn bo'ylab sochib yuborishadi. Tafsilotlar voqealar rivojiga monand o'zgarib turadi, qahramonlarning yangi qirralari, ularning ichki dunyosi, ruhiyati manzaralari ochib beriladi, odatda qahramon bilan birinchi uchrashuvda uning statik portretini yaratib, unda qahramonning tashqi ko'rinishini batafsil tasvirlashadi. N. Norqobilov romanlarida "kelbatidan ot hurkadigan" [Norqobilov 2009: 71] Eshqul polvon, "yuzi va bo'yni shamolu quyoshdan qoraygan, badani esa oppoq" [Norqobilov 2009: 58] To'lanboy, "pacha-puchoq jo'ralari" [Norqobilov

2009: 58] — Zunun va Roʻziqul, “parivash qorakoʻz nigor emas, qoʻykoʻzli oddiygina qiz, yuzi ham sutga chayilganday oppoq emas, rangpargina” [Norqobilov 2009: 153] Oygul tasviri statik portretga yorqin misol boʻladi. “Xuddi qafasga tushgan boʻriday, choh boʻylab izgʻish-u, dam-badam boshini koʻtarib, yuqoridagi tuynukka alam-la boqib qoʻyishdan boshqasini bilmagan” [Norqobilov 2016: 58] Erman, “oʻktam nigohida hamdardlikdan tashqari, qahrga oʻxshash nimadir doimo olovlanib turgan” Oybekach, “yuzida oʻsha istehzoli nim tabassum, koʻz ilgʻamas imo-ishoralar bilan mazkur xavfli jarayonni zimdan boshqararkan, har safar marosim soʻnggida gohida indamay turib ketadigan” [Norqobilov 2016: 115] Itolmas tasviri asosida dinamik portretni yaratadi.

Portret yaratishda N. Norqobilovning qahramonga nisbatan subʼyektiv munosabati seziladi. Personajlarning nomiga qoʻshilgan sifatlovchilarni (Eshqul polvon, Nosir polvon, Oybarchin, Oybekach, Oygul, Donishota, Qalaybek, Sulaymon chavandoz (ijobiy), Toʻlanboy, Erman, Boygʻozi kal, Zokir qora, Oʻljaboyev, Ulash qora, Roʻziqul (neytral); Oʻsarqul battol, Asil choʻtir, Shavkat qirriq, Itolmas, Qoraqul, Zafar pismiq (salbiy) ularning individual belgilarini koʻrsatuvchi badiiy vosita shaklida qoʻllagan.

Yozuvchi portretni boshqa personajlar tasavvuri, mulohazalari, idrokiga tayanib ham yaratadi. Eshqul polvon Saʼdullaga gʻayriixtiyoriy ravishda boqarkan, bundan hayratlanadi: “Uning oppoq, semiz barmoqlari va tizzalari ustiga tushib turgan qorniga koʻz tashlarkan, uni oppoq eshakqurtga oʻxshatadi [Norqobilov 2009: 101]. Eshqul polvonning oʻxshatishi orqali uning Saʼdullaga antipatiyasini yaqqol sezish mumkin. Yoki Eshqul polvonni bir umr dashtda podachilik qilishiga sabab boʻlgan kimsa — Boygʻozi kalni taʼriflaganda, unga nisbatan ijobiy munosabati boʻy koʻrsatadi: “Tili achchiq boʻlgani bilan yuragi toza edi. Odam bolasining mudrashiga yoʻl qoʻymasdi, oʻlikka oʻxshab soʻljaymay, tetik yur, deb doim hammani tergap, turtkilab yurardi. Elga kayvoni boʻladigan odam edi. Uning ruhini ardoqlab, opkeb bergan oʻtovini uzoq yil tutdim, kigizlari chirib, choʻplari ado boʻlguncha tutdim. Keyin tashlab yuborishga koʻzim qiymay, barini Qizilqoyaning poyiga oborib koʻmdim. Rahmatli qoyaday viqorli edi. Bunaqa odamlar hamisha kam boʻlgan!” [Norqobilov 2009: 156]. Asarda bir qancha personajlarning ichki va tashqi portretiga xos chizgilarga Eshqul polvon nigohi orqali razm solinsa, bir necha personajlarning Eshqul polvonga nisbatan tavsiflari ham keltiriladi.

1-jadval

Eshqul polvonning ichki va tashqi portretiga berilgan tavsiflar

Haydar	Pochchaning jasadiyam bunikidan kam emas-da! ...Quturgan paytida, eng yaxshisi, hadaha oyoqni qoʻlga olgan maʼqul, emasam, yerga namatday choʻzib tashlaydi! [Norqobilov Dashtu dalalarda 2009: 19]
Saʼdulla	Omisizda, otam, omisiz, madaniyat nimaligini tushunmaysiz [Norqobilov Dashtu dalalarda 2009: 65].

	Iyagingizdagi soqolni demasa, lekin siz hech ham qariga o'xshamaysiz. Qomatdan xudo bergan ekan, ikki betingiz qip-qizil... [Norqobilov Dashtu dalalarda 2009: 66].
Oysuluv	Otangni bo'lishi shu, bolam. Sening tug'ilishingni biz o'n yildan oshiq kutganmiz, hech bo'yimda bo'lavermasa-da, otang menga bir og'iz achchiq so'z aytmagan. Sen tug'ilganingdan keyin ham boshqa erkaklarga o'xshab do'ppisini osmonga otmagan. Dashtni boshiga ko'tarib baqirmagan [Norqobilov Dashtu dalalarda 2009: 95].
Ulash qoraning mehmoni (ismi keltirilmagan)	bu odam hamma qatori mutelarcha qo'l qovushtirib o'tirmagan, davrga nisbatan o'ziga xos tarzda isyon ko'targan. Sizga-bizga o'xshab xatti-harakatining oqibatini emas, ko'proq elning manfaatini o'ylagan [Norqobilov Dashtu dalalarda 2009: 158].

Bir qancha personajlarning tavsifi orqali Eshqul polvon va Sobitjon obrazlarini yaratish mahoratida adiblar uslubida mushtaraklik kuzatiladi. Qahramonlarning individual xususiyatlarini ochishda jamiyatdagi turli qatlam vakillarining tavsiflari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bundan qahramon mikroxtopining turli rakursdagi namoyoni yuzaga keladi.

Oqbo'ta zakiy nigohi orqali Xonto'ra va uning o'g'li Qalaybekning ichki portretiga nazar soladi: Qalaybekdek oqil, serandisha, lutfi totli yigit shu so'xtasi sovuq bandaning zurriyodi ekaniga ishongisi kelib-kelmay, Xonto'raning tund aftiga bir muddat tikilib qoladi. ...Xonto'raning obro'yi yuksak emas, o'rtadan past darajada. Badgir va maydagapligi bois hamisha kishilardan dakki yeb yuradi. Hozir ham noqis fe'li tufayli kimdandir dashnom eshitgan shekilli, rangi chiqmay turibdi [Norqobilov 2009: 27]. Xonto'raning ichki portretiga xos belgilar Qalaybekning hovlisiga, Ermanni ko'rish uchun Tuyako'z vodiysiga borganda yanada teranlashadi. Qalaybekning ma'naviy-ruhiy olamiga xos qirralar asarning turli o'rinlarida — Oqbo'ta, Donishota, Erman, Bibisoralar bilan munosabatlarida ayonlashadi.

Personajning o'ziga tavsif berishi bandilikdan qutulish amru maholligini anglagan Erman monolog-mulohazasida namoyon bo'ladi: "Axir u qul emas, Ko'kalabosh qavmining erkin, o'ziga ishongan yigitlaridan biri edi-ku! Nechun yaramas Qoraqul unga qul kabi muomala qilmoqda? [Norqobilov 2016: 55] yoki Oybekach o'zini "Xudo urgan bir sarkashman-da", deb o'ylasa, boshqalar ham "O'r, juda o'r!" [Norqobilov 2016: 153] ta'rifini berishadi. Oybekach mikroxtopini ichki portret orqali ochishda xalq doston va rivoyatlaridagi To'maris, Xolbeka obraziga xos xususiyatlarni stilizatsiyalaydi: "o'tgan ulug' momolarning zukkoligi va yovqurligi Oybekachga meros sifatida o'tgan emasmi, buning bari juvon vujudi va shuurida aks etib, oqibatda, uning idrok etgani shu bo'ldi — bu yorug' olamga kelish baxtiga muyassar bo'lgan har bir tirik jonning zimmasida ertangi hayot ibtidosi mavjud, ya'ni tiriklikning kelgusi

tebranishi bugungi avlodning guvranishiga bog'liq" [Norqobilov 2016: 100]. N. Norqobilov romanlarida folklor obrazlarini stilizatsiyalash natijasida qahramonlarning milliy-ma'naviy qiyofasini yaratish barobarida ularning mikroxtrotopini teranlashtiradi.

Ch. Aytmatov romanlaridagi statik portret namunalari quyidagilar: Qoranorning "ko'zlari biram chiroyli, namchil tortgan bu yirik, tiniq ko'zlar bolalarniki singari yoqimli va umidvor" [Aytmatov 2019: 102], Ukkubola (ilgari qanaqa edi — qoramag'iz yuzlari bug'doy rangida tovlanar, qop-qora ko'zlari chaqnaq turar edi), yana buning ustiga, guruchday tishlari tushib ketibdi [Aytmatov 2019: 17], Kazangapning haqiqiy dasht odami ekanini jazirama issiq va doimiy shamoldan qorayib, qotib ketgan yuzlariyu sertomir, chandir qo'llaridan sezib olish mumkin. Og'ir mehnatdan barvaqtroq bukchayib qolgan yelkalari mahobatli osilib turadi, shuning uchun ham bo'lsa kerak, o'zi o'rta bo'yli bo'lsa-da, bo'yni g'ozning bo'yni singari cho'zilib ketganday tuyuladi. Hammasidan ham ko'zlari o'zgacha: kulimsirab turuvchi bu qop-qora ko'zlar, odamning dilidagini sezib turganday e'tibor bilan boqadi. Kazangap o'sha kezlari qirq yoshlar atrofiga borib qolgan edi. Tozalab qaychilangan kora murti, burul tortib qolgan cho'qqi soqoli bu odamning yoshini ancha ulug' qilib ko'rsatardi [Aytmatov 2019: 89], Bork "birdan boshiga shlyapasini kiydi-yu, o'z qiyofasiga kirdi. Olomon oldida yirik suyaklari turtib chiqqan, yuzi keng, ko'zlarining atroflarini ajin bosgan, lekin bo'yni hali baquvvat, tishlari butun, oq sochli chol turar edi. U Frankfurt jurnalistlari tili bilan aytganda, "Keksa qoya" edi [Aytmatov 2016: 239]. Adib statik portret orqali inson va jonzot tashqi ko'rinishining obyektiv, nisbatan barqaror va o'zgarmas belgilarini ifodalaydi. Personajning jamiyatdagi o'rni, qaysi qatlamga mansubligini ko'rsatadigan belgilar Kazangap, Bork va Ukkubola portretlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Muallif dinamik portret orqali qahramonlar qalbidagi ruhiy talotumlarni tasvirlagan: Arsen Samanchin "Yevraziya" restoranidan haydali shning iztirobli lahzalarida "uning boshi aylanar, yuragi ko'ksida gursillab urar, bugunga mo'ljallagan ishlari endi bitmasligini o'ylab siqilardi" [Aytmatov 2016: 27].

Dinamik portret orqali Ertosh Kurchalning ummoniga g'arq Oydananing "yo men yulduz uzangisida pop-shou-biznesning keng yo maydonlariga ot qo'yaman, yo romantizmning yig'i-sig'isini qilib, kunim tilanchilikka qoladi!" [Aytmatov 2016: 131] qabilidagi a'moli ayonlashadi: "Qo'shiqchi qiz kuy kuylab, odamlarning zavqu shavqlarini benihoya junbushga keltirib chirmovuqday buralar, badanidagi barcha a'zolarini jo'sh urdirib o'ynatar, izdihom esa boshdan-oyoq vajdu jazavaga tushib, qo'shiqchi qizni sira qo'yib yubormas, ko'zlari bilan uni naq yeb qo'yguday, qars urar, qiyqirar, Arsen esa sahna yonida turib, qiz ovoz taratib, arzon, yengil musiqa maqomlariga jonini ayamay yo'rg'alayotganidan, shu musiqaning bandi-asirasiga aylanayotganidan nigohini uzmasdi" [Aytmatov 2016: 28].

Asosiy syujet voqealariga parallel tarzda keltirilgan jaabars hikoyatida jonzotning dinamik portreti yaratilgan: "u o'ljasini quturib quvib borayotganday nafasi og'ziga tiqilar, yuragining gursillab urishidan quloqlari chippa bitar va eng qo'rqinchlisi — nafas yetmay og'ir bo'g'ilar,

oyoqlarida majol qolmay tappa yiqilar, orqasiga sirg'alib qular, ko'zi jimirlab nazarida dunyo ostin-ustin bo'lardi. Uyog'iga yana yuqori ko'tarilishga kuchi yetmasdi — tomog'i xir-xir qilar, bo'g'ilib irillar, biroq bir odim ham oldinga bosolmasdi..." [Aytmatov 2016: 35]. Achchiq qismatidan Uzangilash dovoniga qochib ketishni benihoya istagan Jaabarsga Arsen singari tole kulib boqmaydi.

Ch.Aytmatov portretni qahramonning o'zi yoki bir hamda bir necha qahramon tasavvuri orqali yaratadi, bu usul qahramonning xarakter-xususiyatini, boshqa personajlarning unga nisbatan sub'yektiv munosabatlarini ham bildirishga xizmat qiladi: "Qulayotgan tog'lar" asari qahramoni Oydana Samarova tasvirida Arsen Samanchinning "ortiqcha kamtarlikka hojat bormi" izohi orqali uning naqadar go'zalligiga ishora qilinadi: "Oyaga, ha haqiqatan tabiat go'zal husnu malohat ato etgan, bo'y-basti, qaddi-qomati, gulday chehrasi, qop-qora kipriklararo chaq nab turuvchi tarxi chiroyli ko'zlari, kalta kestirilgan, yelkasiga to'kilib turadigan, dam orqaga taralgan, dam tarovatli ikki betini yoyday o'ragan sochlari! Ovozi-chi! Unga shunday tiniq, o'tkir, go'zal ovozni ato etmish Ollohga cheksiz hamdu sanolar bo'lsin!" [Aytmatov 2016: 128]. "Qiyomat" romanida Avdiy Pushkin muzeyidagi konsertda Sofiya mug'anniylari orasidagi qora sochli bolgarlar ichida birdan-bir malla qo'shiqchi juda ham o'ziga o'xshab ketishini sezib qoladi: "O'zingga baayni o'xshaydigan odamni uchratsang, g'alati bo'lib ketarkansan kishi. Uning ko'zlari ko'kimtir och, yelkalari tor, — ehtimol, uni ham bolaligida oriq deb chaqirishgandir, uzun sochlari och sarg'ish, qo'llari serpay va ingichka, u ham tortinchoqligini qo'shiq aytib yengsa ajabmas, bunday holat menda ham ko'p bo'ladi, o'ng'aysizligimni yashirish uchun ko'pincha gapni diniy mavzularga burib yuboraman" [Aytmatov 2015: 82].

Edigey Bo'ron nigohi orqali Ukkubola, Sobitjon, Zarifa, Qoranor kabi personajlarning ichki va tashqi portretiga xos ayrim chizgilar tasvirlanadi. Birgina Sobitjon portretiga turli personajlar razm solishgan va bu adibga Sobitjonning psixologik portretini, ya'ni nafaqat qahramon tashqi qiyofasini, balki uning xarakteriga xos tadrijiy dinamikani ko'rsatish imkonini bergan.

2-jadval

Sobitjonning ichki va tashqi portretiga berilgan tavsiflar

Edigey Bo'ron	Bir qarashda kiroyi yigit. Hamma baloni biladi, hamma narsani eshitgan, lekin bulardan naf yo'q [Aytmatov Asrni qaritgan kun 2019: 29]. ...qiyofasidan yoshlik davri arang seziladigan ukki ko'zli, doim kulib turuvchi kattagina kishi turibdi. Endi u ko'zoynak taqib olgan, boshida tepasi bukib qo'yilgan shlyapa, bo'ynida urinib qolgan bo'yinbog' — zo'rg'a tanib olasan [Aytmatov Asrni qaritgan kun 2019: 38].
Edilboy Daroz	...uzzukun telefon oldida o'tirar, boshliqning kabineti bilan qabulxona o'rtasida bo'zchining mokisiday yelib-yugurar, "Eshitaman, Aljapar Qahramonovich! Xo'p bo'ladi, Aljapar Qahramonovich! Hozir, Aljapar

	Qahramonovich!” deyishdan boshqa narsaga ulgurmas ekan. “Bo‘ronlidan chiqqan hamsoyamiz shunaqaykan, bilmay yurgan ekanmiz”. Bo‘lgan-turgani shu bo‘lsa, nimayam qilardi... [Aytmatov Asrni qaritgan kun 2019: 33].
Oyzoda	Sendaqa oqilu donoga ko‘zimiz uchib turgani yo‘q! ...sen ham firibgarsan, xotiningga poy-patak bo‘b yurgan pastkashsan, ikkoving otamni sog‘in sigirday sog‘ib ichdinglar [Aytmatov Asrni qaritgan kun 2019: 48].
Oyzodaning eri	Agar oramizda it bo‘ladigan bo‘lsa — o‘sha sening o‘zingsan, ablah! Anavi it nimayu, sen nima? Yana maqtanganiga o‘laymi, men davlatning odami, davlatning odami deb! Sen umuman odam emassan! [Aytmatov Asrni qaritgan kun 2019: 501]

Bir necha personajlarning Sobitjonning ichki va tashqi portretiga oid tavsiflari qahramon xarakterining turli qirralarini ochishga xizmat qilgan. Tashqi ko‘rinish tafsilotlari ichki portret belgilari bilan uyg‘unlik kasb etgan. Romandagi biror qahramon portretiga Sobitjonni singari turli personajlar nigohi orqali nazar solinmagan. Turli nuqtai nazar asosida yaratilgan portret nafaqat muallifning, balki personajlarning o‘zaro munosabatini, simpatiya yoki antipatiyani, shuningdek, qahramonlarning ichki dunyosiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi.

“Qiyomat” romanida Grishan va Ober Kandalov to‘dasiga mansub personajlarning ekspozision portretlarini yaratadi. Ekspozision portret — bu odatda, asarda ilk marta ko‘rinish bergan qahramon tashqi ko‘rinishidagi detallarning birma-bir sanab o‘tilishidir [Botirova 2019: 131]. “Bedananing uyi yo‘q, qayga borsa, pitpildiq deganday, bular ham tayini yo‘q, qamg‘oqdek shamol qayerga uchirsa, shu yerda daydiydigan kimsalar edi. Faqat Kepagina bundan mustasno edi. Uchtasini xotini tashlab ketgan, hammalari ham na birovni yalchitgan, na o‘zlari yalchigan; shuning uchun ham dunyodan to‘ygan, hamma narsadan norozi edilar. Ular o‘rtasida yoshgina bir yigit ajralibroq turardi. Uning ismi ham g‘alati — Avdiy edi” [Aytmatov 2015: 43]. Avdiy ismi Injilning uchinchi Mulk bitigida uchrashi, o‘zi asli dyakonning o‘g‘li bo‘lib, Pskov tomonlardan ekani, otasi vafotidan so‘ng, diniy seminariyadan haydalgani haqida ma‘lumot beriladi. Ammo voqealar rivoji mobaynida Avdiyning ichki va tashqi portretiga xos chizgilar tadrijiy berib boriladi. Jarima batalonining katta leytenanti sifatida faoliyat yuritgan, keyinchalik axloqsizligi tufayli unvonidan mahrum bo‘lgan Ober Kandalov, qo‘tosdek serzarda, istagan odamini bo‘ralab so‘kadigan Mishka Shabashnik, eng ko‘zga ko‘rinmaydigan kamsuqum odam, oblast drama teatrining sobiq artisti Gamlet Galkin, traktorini katta yo‘lning o‘rtasiga tashlab ketib, bir inson halokatiga sabab bo‘lgani uchun ikki yil qamalib chiqqan, ayoli va bolalari tashlab ketgan Uzuqboy haqida kitobxonda ilk tasavvur hosil qiladi. Asar voqealari halqali zamonda rivojlanadi, ya‘ni birinchi qismning boshida mashinada qo‘l-oyog‘i bog‘liq yotgan Avdiy ikkinchi qismning yakunida aynan Oberning to‘dasi tomonidan saksovulga bog‘lanadi.

Adabiyotshunos olim G'. Murodov "Adabiy qahramon va tabiat" maqolasida peyzajning ikki turini ajratib ko'rsatgan:

1) badiiy asar qahramoni ruhiy holati bilan bog'liq tabiat tasviri. Bu ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi: a) qahramon (personaj) kayfiyatiga mushtarak peyzaj; b) qahramon kechinma va ruhiy holatlariga qarama-qarshi bo'lgan manzaralar;

2) obyektiv tabiat tasviri — bunda tabiat tasviri va qahramon qalbidagi kechinmalar o'zaro bog'liq bo'lmaydi. Peyzaj yozuvchining ijodiy-badiiy niyatiga ko'ra ifoda topadi [Murodov 2008: 32].

Birinchi tasnifning mohiyati 3 va 4-jadvallarda tahlil qilingan.

3-jadval

Qahramon (personaj) kayfiyatiga mushtarak peyzaj tasviri

Holat tasviri	Peyzaj tasviri
Mana shu quturgan yirtqich yovga qarshi yolg'iz ona — qurol-yaroqsiz ayol nima ham qila olardi? Insonni xotirasidan mahrum etishdek shafqatsizligu vahshiylikka ularni qaysi turmush, qaysi voqea-hodisalar majbur etdi ekan, deb o'ylardi ojiz qolgan ona o'zicha... [Aytmatov 2019: 175]	Kech kirib qolgan edi. Quyosh botgan bo'lsa ham osmonni olovlantirib turgan shu'las allamahalgacha dala yuzini yoritib turdi. So'ng birdan qosh qorayib, borliqni tun zulmati qopladi [Aytmatov 2019: 175].
Edigey ruhi tushib, ichidan zil ketayotganini sezib, jim bo'lib qoldi [Aytmatov 2019: 226]	Ayni paytda, bo'lib turgan voqeaga nisbatan ichki qahr-g'azab va norozilik tuyg'ulari Orol dengizi to'liqlaridek ich-ichidan bosib kelardi [Aytmatov 2019: 226].
Zarifa kirib-chiqib turgan odamlar to'dasi orasida hamma narsadan xoli, yolg'izlanganday ko'zga tashlandi. Rang-ro'yi murdanikiday oqarib ketgan, xuddi atrofda hech narsa yo'kdek, dashtlikda yolg'iz o'zi yurib borayotganday edi. Ko'zlari ojizlarniki singari yumilgan, boshini tik tutib, g'am-g'ussasini ichiga yutib, lablarini qattiq qimtib olgancha kelardi. Yaqinlashganda Edigey o'rnidan turdi: u sekin yaqinlashib kelayotganday tuyuldi, qarshisida hech narsani ilg'amay, ko'z oldi shu qadar qorong'ilashib, sekin-asta tund holda kelishi dahshatli edi [Aytmatov 2019: 375–376].	Mart oyi osmonidagi kulrang, namxush bulutlar tepadan bosib turgandek tuyular, izg'irin shamol esa kishini behuzur qilardi [Aytmatov 2019: 376].
Edigey Bo'ron sevimli ayolidan	Yer o'z o'qi atrofida aylanar,

ajralgan o'sha kuni shu qadar tushkunlikka tushib, umidsizlikdan tiz cho'kdiki, hech bir qirol, hech bir imperator, hech qanday hokimi mutlaq taxtibaxtidan ajralib qolgan chog'da ham yorug' dunyo qarshisida bunchalik g'am-g'ussa bilan tiz cho'kmagandir?! [Aytmatov 2019: 439].	koinot shamollariga yuvilib, suzib borardi. Quyosh atrofida aylanardi va shu dam o'z charxi bo'ylab aylangan ko'yi Sario'zakning qorli dashtlarida tiz cho'kib o'tirgan kishini olib ketmoqda edi [Aytmatov 2019: 439].
Yupqa tungi ichki ko'ylakda badani sovuqdan dildirab, qo'llarini ko'ksiga mahkam bosgancha, titrab-qaqshab, bujmayib, ularga termulib yuragi orqasiga tortib ketar, bolalarim otasini tush ko'rishyapti, yig'lab, qiyqirib, quloqlarini keng yozib, kulib, baqirib-chaqirib, bir-birlaridan quvib-o'zib, jonlari boricha unga tomon chopib borishyapti, talpinib-talpinib unga hech yetisholmayapti... deb yuragi havl olardi... [Aytmatov 2019: 255],	Xuddi notinch, serxavotir tushdagi kabi buralib-buralib uchgan quyunlarga burkangan tungi poyezdlar zulmat ichra kelib, zulmat ichiga sho'ngib ketishardi... Bunday tunlarda dunyo zamharir qahraton puskurishlariga chulg'anib azal bo'shliqlaridan qayta bunyod bo'layotganday, Sario'zak cho'llari ko'z ochirmas zulumot va yorug'lik talashlarida yaralayotgan tutab yotgan bahri muhitga o'xshardi... [Aytmatov 2019: 255].
U derazaga yopishgancha turaverdi, u adolatsizlikka bo'y bermagan, unga toqat qilmagan, murosaga kelmagan holda o'sha qaysidir yengib bo'lmas kuchga bo'ysunishga majbur bo'ldi. Uning butun vujudi bundan larzaga tushdi. Axir xotin, bola-chaqalari yonginasidan biqinib, pusib, jimgina xuddi zabonsiz maxluqday o'tib ketishning o'zi bo'ladimi? Uni ozodlikdan mahrum etgan kuch shunga majbur qildi [Aytmatov 2019: 362].	Yo'l bo'yi qor bo'ralab yog'di, quyun, bo'ron turdi [Aytmatov 2019: 364].
Shunda Avdiy qonli go'sht parchasi kabi pastga uchib ketdi. U temir yo'l ko'tarmasidan qanday qulagani, nimalarga urilib, surilganini sezgani ham yo'q, eshelonning dumi u yiqilgan yerdan shaldirab o'tdi, sobiq hamrohlari tushgan poyezd ko'zdan yo'qoldi, g'ildiraklarning	Ko'p o'tmay quyosh so'ndi, qorong'u tushdi, momataloq tusiga kirgan g'arbning qo'rg'oshin osmonida qora bulutlar quyuqlashdi... [Aytmatov 2015: 184].

shovqin-suroni tindi, lekin u hech narsani sezmedi [Aytmatov 2015: 184].	
Iniga yaqin qolganda, u yanada qattiqroq yugurdi. Toshchaynarga kayrilib ham qaramadi. ...Akbara jilg'adan sakrab o'tdi, butalar orasidan yildirimday yugurib kamarga chiqdi va lip etib qoya ostidagi iniga o'zini urdi. Huvillab qolgan bo'm-bo'sh uyasining hamma burchaklarini ovchi itday iskab chiqdi va pishqirdi, bir zum qotib qoldi, so'ng o'zini tashqariga otdi, in og'zida Toshchaynar bilan to'qnashdi, xuddi bariga u aybdorday, xuddi eri emas, g'anim-yovday uni alam ustida tishlab oldi [Aytmatov 2015: 306-307].	Xuddi yonginasida allaqanday qush soya kabi parpirab uchayotganday, botib borayotgan quyoshning so'nggi nurlarida anglab bo'lmas vahim, xarosonlik bilan tuydi. Yuksak tog' zirvarlarida akslanayotgan qonli shafaq shu'lalari borgan sayin qorayib, dilga tashvish va qo'rqinch solardi [Aytmatov 2015: 306].
O'sha kuni tahririyatdagi kayfiyat soat sayin o'zgarib turdi, bir qarasangiz, hammaning qo'ltig'idan tarvuzi tushib, bosh muharrirdan tortib, jurnalistika fakultetidan kelib, shu yerda bo'lajak reportajlarning sir-asrorini o'rganib yurgan shogirdlargacha — hamma-hammasi eshiklarni yopib olib, hatto bir-birlari bilan gaplashishdan ham o'zlarini tiyib, bosh ko'tarmasdan ishlashar, bir qarasangiz, aksincha, quloqni qomatga keltiradigan shov-shuv, qiy-chuv ko'tarilar, hamma izg'ib, yo'laklar va xonalarni boshlariga ko'targancha shovqin-suron og'ushida bir-birlariga hayajonli nigoh tashlar edilar [Aytmatov 2016: 15].	Nuh to'fonining obi ombori, kelajakda ham muqarrib-u muqarrar jahon to'foni mavjlarini o'zida jam qila oladigan okean esa, o'sha kuni qit'alar orasida bor qudrati ila chayqalib, o'zining butun tinib-tinchimas jismi bilan yer kurrasini sezilar-sezilmas tebratar, bahaybat oqimlar bilan o'ynashar, o'z-o'zidan hayajonlanib va ko'z ochib yumguncha o'rkach-o'rkach to'lqinlar ko'tarib, ummongagina xos bepoyon kenglikda milt-milt yog'dular o'yinini namoyish qilar edi [Aytmatov 2016: 16–17].
Olomon ana shu dahshatli manzarani tasvirga tushirmoqchi bo'lgan teleoperatorlar guruhini ezib-qisib tashladi, ularning asboblari oyoq ostida qoldi. Biron iloj qilmoqchi bo'lib uringan bir necha polisiyachining qo'lidan hech narsa kelmay, girdobdagi	Hozir okeanda bo'ron o'ynamoqda edi. Meteorologiya xizmati Atlantika sohili bo'ylab kuchli bo'ron bo'lib to'lqinlar quturajagini barcha kompyuter kanallari orqali xabar qilgan. Atlantika okeani ustidan o'tayotgan samolyotlar kuchli chayqalar, havo

payraha holiga tushib qoldi. Robert Borkni esa qayoqqadir surgalab ketishdi, qayoqqa olib ketishganini xudo biladi. Uni birov bo'g'zidan ushlab, birov sochidan tortib, birov lunjiga qo'lini tiqib, og'zini yirtgan ediki, birpasda bechora cholning aft-basharasini tanib bo'lmay qoldi. Odamlar bir-birini siqib ezib borar, bu esa olomonning g'azabini battar avj oldirardi [Aytmatov 2016: 240].	kemalarining komandirlari yo'lovchilardan kamarni bog'lab olib, o'rinlaridan turmasliklarini o'tinar va parvoz mushkulliklari haqida Yerdagi xizmat idoralariga xabar berib borar edi [Aytmatov 2016:243].
...bir-birlariga maftun sevishtganlar sayr yana davom etishini istashardi, bu zerikkandan vaqtni shunchaki o'tkazish emas, ko'klardan inoyat bo'lgan visol damlari edi ular uchun, bu onlarni har ikkovlari zoru intizor kutgan, hayotlarining eng qimmatli damlari kabi qarshi olgan, shuning uchun nima o'tgan bo'lsa, bari birdan unutilgan, zero hozirgi kun yangi hayot daragini keltirgandi [Aytmatov 2016: 201].	Tog'lar oqshom pallasini osuda ulug'vorlik bilan qarshilar, ular bilinar-bilinmas oqshom shu'lalariga chulg'anar, qoyalarning o'tkir va shahd qirralari, cho'qqilar mayin ranglarga g'arq bo'lardi. Musaffo ko'k bag'rida cho'qqilarning tizmalari uzra maftunkor erkalanib, oppoq-oppoq bulutlar ko'pirar, yumaloqlanardi [Aytmatov 2016: 201].
U so'nggi nafasini olarkan, oxirgi daqiqalarda olis-olislardan kelgan Mangu qayliqning mungli sasini eshitdi: "Qaydasan, qaydasan, sen mening sayyodim?" Qulog'iga chalingan bu ovozga u pichirladi: "Alvido, alvido, biz endi hech qachon ko'rishmaymiz..." [Aytmatov 2016: 249].	Oy tunning dalva-dalva pag'a bulutlari orasida sho'ng'irdi, shamol yulqinib o'zini azamat qoyalarga urar va oh tortib yuz tuban ag'anardi, boshqa hech bir sas-sabar eshitilmasdi... [Aytmatov 2016: 249].
Hatto tepasidagi oftob ham uning ahvoli ustidan kulayotgandek, sira siljiy demasdi, go'yo ko'kda mixlanib qolgan [Norqobilov 2009: 62].	O'tayotgan har bir kuni yilga tatib, azbaroyi siqilganidan, dodlab yuboray deydi [Norqobilov 2009: 62].
U qaynonasi bilan birrovgina ko'rishib ketishni o'ylaydi. Lekin qarshisida bamisoli itdek irillab turgan qaynotasini bosib o'tolmaydi. O'sarqul battol qizini olib qochib, o'zini gap-so'zga qoldirib ketgan kuyovini kechiradigan chog'i yo'q, imkon topildi deguncha, qopsam, tishlab	Quyosh nuridan qizg'ish tus olgan qirlar bag'ri qonli tuyuladi. Dala-tuz ham shu tusda. Keng hovlining bir chetida tandir qizdirayotgan qaynonasi-yu, qishloq ustida muallaq turib qolgan tutun ham shu rangda ko'rinadi [Norqobilov 2009: 142].

olsam deydi [Norqobilov 2009: 142].

4-jadval

**Qahramon kechinma va ruhiy holatlariga qarama-qarshi
bo'lgan manzaralar**

Holat tasviri	Peyzaj tasviri
Bolalar ham, kattalar ham rosa yayrab, miriqib o'ynashdi, yomg'ir esa hamon tinmasdi. Nihoyat, hammalari uy-uylariga yugurishdi. Shunda Edigey bolalari bilan birga yonma-yon chopib ketayotgan Quttiboyevlarning ortidan xayrixohlik bilan qarab turdi. Hamma shalabbo bo'ldi. Bir kungina bo'lsa-da, Sario'zakka baxt kulib boqqan edi! [Aytmatov 2019: 187].	Qanchadan beri yog'magan yomg'ir bir yo'la xumorida chiqmoqchidek edi. Yer larzaga keldi. Bir zumda hammayoq ko'loblaru pufakchalarga to'lib ketdi. Yomg'ir tobora quturib, dahshatli ravishda yog'ardi [Aytmatov 2019: 184].
Raymali og'a Abdilxon tomon yuzlanib birdan kuylab yubordi: "So'nggi zulmat — barin olib tun ketar, tong bo'zarib yana yorqin kun kelar. Biroq, mening yorug' kunim qorong'u. Badbaxt inim, Abdilxon, sen quyoshim o'chirding, yorug' kunim tun etding. Yoshim qaytib, rabbim menga sevgi ato etganda, dilbandimdan judo etib, motamsaro gerdayding, quvonchingning boisi ham shundadir [Aytmatov 2019: 460].	Yoz qaytib, pishib yetilgan o't-ko'katlarning dimoqni qitiqllovchi xushbo'y hidi taraldi. Tog'-toshlarga yomg'ir yog'ib o'tgan. Kun botish oldidan yer bag'irlab bamaylixotir uchib borayotgan kalxatlar ko'zga tashlanadi. Darrandalar osoyishta, so'lim kechani sharaflab madhiya o'qiyotganday chug'urlashadi... [Aytmatov 2019: 455].
Yuzboshi o'zini yerga otdi va o'kirib yig'lab, qattiq shag'al tosh yerlarni qo'llari bilan sidirib, tatalab, tirnab qornida sudraldi, lekin yer yorilmadi, unga joy bermadi. Keyin u tizzalab o'tirdi va belidagi pichoqqa qo'l yubordi... [Aytmatov 2019: 324].	Cho'l sukunatga g'arq bo'lgan, huvillab yotar, ko'k osmon yulduzlari charaqlardi. Faqat vafodor ot Oqyulduzgina oy nuriga ko'milgancha egasining amrini kutib, ohista pirqillab-pirqillab qo'yardi... [Aytmatov 2019: 324].
Futurologning musibatdan ado bo'lgan bevasi birdan keksayib qolgan edi. U daydi darveshga o'xshab qolgandi. Jessi nima	Quyosh oyna orqali xonaga shaffof yog'dusini sohib turar, osmon ham osoyishta va tiniq edi, sal nariroqda zarang daraxtining barglari oftob

qilishini bilmas edi. Alamini yig'idan olar edi. O'zini tutib olish uchun bo'lsa kerak, nimalarnidir o'zicha to'ng'illar, allanimalarnigina o'ylar edi [Aytmatov 2016: 249].	nurida beozor oltinlanmoqda edi... [Aytmatov 2016: 249].
Biroq Erman qavmdoshlarining aksi o'laroq, na qullikda o'tgan kunlarini, na ichgan ontini unutgandi. Agar boshqalar kabi tiriklikning quvonch va tashvishlariga ko'milib, kechagi kun azobi va xo'rliklarini xayolidan mosuvo etar bo'lsa, shu zahotiyoq odamlilik siyog'idan chiqishini yaxshi bilardi. [Norqobilov 2016: 30].	Kunlari shukuhli, butun borliq — tizzaga uradigan yashil o't-o'lanlar, quyoshga nozlanib boquvchi turfa chechaklar, toshlar oralab shildirab oqayotgan jilg'alar, o'tgan-qaytganida qayishqok novdalari ila yelkalarini silab-siypalaydigan dov-daraxtlar, qo'yingki, butun nabotot go'yo yolg'iz uning xizmatida-yu, bari uniki edi [Norqobilov 2016: 34].

Peyzajning qahramon ruhiyatiga monand yoki kontrast holda ifodalashdan yozuvchining ijodiy maqsadi personajlarning xarakter qirralarini, qalb evrilishlarini tabiatning sokin va shiddatli tasvirlari orqali ifodalash, tashqi makonning ichki makonga ta'siri, tabiat va tiynat uyg'unligini kitobxon teran idrok etishini ta'minlashdan iborat. Adabiyotshunos H.Umurov ham adabiyotda tabiat ham, muhit, sharoit, predmetlar ham inson mohiyatini ochishga bo'ysundirilib, "insoniylik" xususiyati kasb etishini, asosan, odam va uning kechinmalari hukmronlik qilishini to'g'ri ta'kidlagan [Umurov 1995: 4]. Qahramon kayfiyatiga mushtarak peyzaj yoki qahramon kechinma va ruhiy holatlariga qarama-qarshi bo'lgan manzaralar aslida prospektiv xarakterga ega bo'lib, personaj hayotida keyin ro'y beradigan quvonchli yoki iztirobli holatlarga ishora qiladi.

Kompozisiya vositalaridan biri lirik chekinish ham voqealar xronotopini to'xtatishi barobarida yozuvchi mikroxtopini ifodalashda xizmat qiladi. Voqealarning tasviri va bayonidan tashqari yozuvchining ana shu voqelikka nisbatan mulohazalari va kechinmalari keltiriladi. Odatda, bu mushohadalar voqealar rivojini bir muddat to'xtatib qo'yadi. Har ikki adibning falsafiy mushohadalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Ch. Aytmatov va N. Norqobilov romanlarida lirik chekinish tasviri

Ch. Aytmatov romanlaridan parcha	N. Norqobilov romanlaridan parcha
Ba'zida o'ylab qolasan kishi — har doim taqdirdan oldinroq odim tashlash, hayotning mazmun-mundarijasini fahmlab olish ilinjida mashaqqatlar chekish, ya'ni bugun ham, ertaga ham, ming yildan	Xudo bilib bari jonliqni o'z rizqi va o'z makoni bilan yaratgan [Norqobilov 2009: 209].

keyin ham hech qachon hech kimga yuz ko'rsatmaydigan o'sha abadiy muammo ketidan sarson-sargardon yelib-yugurish joningga tegib ketadi [Aytmatov 2016: 18-19].	
Balki ular ilm-fan taraqqiyotini shu darajaga yetkazgandirlarki, oqibatda zamon va makonda insonparvarlikni vujudga keltirish, shu tariqa olam taraqqiyotini yangi, yuksak va cheksiz bosqichlarda ham davom ettiraverish ongli mavjudotlarning asosiy maqsadi bo'lib qolgandir [Aytmatov 2019: 127].	Ming afsuski, odamzod jonivorlarning bu xil xohish va istaklarini hamisha ham anglab yetavermaydi [Norqobilov 2016: 164].
Qancha yer bor, qancha ko'z ilg'amas makonlar va yorug'lik bor, shunday bo'lsa ham, odam bolasiga yana baribir nimadir yetmaydi, hammasidan burun — erkinlik yetmaydi, — deb o'ylardi Avdiy poyonsiz yaydoq cho'llarga boqib. — Odam bolasi odamlarsiz yasholmaydi, yana buning ustiga odamlarga ham toqat qilmaydi [Aytmatov 2015: 171].	Axir odam bolasining dardi-yu alamlari bilan dashtdagi bu jonivorlarning necha pullik ishi bor. Ularga qolsa, To'lanboy kechgacha bo'kirmaydimi. Shusiz ham u dam-badam baqirib-chaqirib turadi [Norqobilov 2009: 117].
Tafakkur tezligi oldida yorug'lik tezligi hech narsa, xayol o'tmishga qarab yo'l olib yana orqaga qaytib, vaqt hamda makon ichida harakat qila oladi, uning sur'ati bilan hech narsa tenglasholmaydi... [Aytmatov 2015: 94].	Odam bolasining ang qolishi bor, dovdirashi bor, ana shunday lahzalarda u oltinga teng qimmatli fursatni qo'ldan boy berib qo'yishi hech gap emas. Ayniqsa, bolalarini himoya qilgan yirtqichlarning behad darajada tajovuzkor bo'lishini hisobga olsak, odam bolasining qo'lidagi bu qurollar, o'rni kelganda, hech narsaga yaramay qolishini tasavvur etish unchalik qiyin emasdir [Norqobilov 2009: 184].
Odamning umri nima, degan savolga javob topib berish qiyin. Inson munosabatlari shunchalar turfa, tabiati, fe'l-atvori shunchalar rang-barang va murakkabdirki, hatto eng mukammal, eng zamonaviy kompyuter sistemalari ham eng oddiy inson tabiatining umumiy chizig'ini ajratib	Biroq mo'jaz bu olamini tashqi dunyo tashvishlari va xurujlaridan birgina eshik to'sib turganligini, odam bolasi bu dunyoga faqat kingadir xalaqit berish uchungina kelganidek, xohlagan paytda eshikni ochib, ochibgina emas, tepib, taraqlatib kirishlari va uning qalbida mavjlanayotgan sirli kuy

berolmaydi [Aytmatov 2015: 42].	— ilohiy bu ohangni ayni avj pardasida beliga tepishlari mumkinligini hozircha xayoliga keltirmaydi [Norqobilov 2009: 198-199].
Odam bolasi odamlarsiz yasholmaydi, yana buning ustiga odamlarga ham toqat qilmaydi [Aytmatov 2015: 171].	Odam bolasi, odatda, yoshi ulgʻaygan sayin quyila boradi deyiladi [Norqobilov 2009: 211].

Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida tasvirlanayotgan voqealar, muammolar, personajlar haqidagi fikr-mulohazalari va kechinmalari lirik kirish, chekinish, xotimada bayon etilgan. Har ikkala adibning olam va odam sinoatlari, ijtimoiy voqelik, maʼrifiy-falsafiy, maʼnaviy-axloqiy muammolar, tabiat va tiynat masalalari, adolat, ezgulik, haqiqat singari umumbashariy qadriyatlar borasidagi falsafiy mushohadalari romanlarning badiiy qimmatini oshirgan.

Muallif ijodiy-estetik konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, adabiy dunyosini, yaʼni badiiy zamon olamini yaratadi. Muallif zamoni ijodiy jarayonning botiniy qonuniyatlarini tushunish, gʻoyaviy-estetik niyatning tadrij takomilini kuzatish imkonini beradi [Shodiyev 1986: 134]. Shu maʼnoda muallif zamoni, eng avvalo, ijod psixologiyasi hodisasi, demak, subʼyektiv zamondir. Asar xronotopining yaratuvchisi sifatida u “oʻz zamonida erkin harakat qiladi: zamonning xolis kechimini buzmagani holda, oʻz hikoyasini tasvirlayotgan voqealarning oxiridan, oʻrtasidan va umuman, istagan holati — daqiqasidan boshlashi mumkin” [Baxtin 1986: 287]. N.Norqobilov har ikkala romanida voqealarni tugundan boshlaydi. “Dashtu dalalarda” romanida Toʻlanboyning ayoli ketib qolgan, dashtda yolgʻizlikdan azob chekkan aftoda tasvirlanib, keyin voqeaning sababi oydinlashtiriladi. “Qoraquyun” romanida esa Ermanning gʻul iti — Qoraquyunni tarbiyalashi bilan bogʻliq muammo qoʻyilib, uning izohi keyingi qismlarda yoritiladi. Ch.Aytmatovning “Asrni qaritgan kun”, “Qiyomat” romanlari peyzaj tasviri, “Kassandra tamgʻasi” va “Qulayotgan togʻlar” romani esa lirik kirish bilan boshlangan.

6-jadval

Ch. Aytmatov romanlari ibtidosida lirik kirish va peyzaj tasviri

Lirik kirish	Peyzaj tasviri
“Kassandra tamgʻasi”	“Asrni qaritgan kun”
Bu gal ham dastlab Soʻzdan boshlandi. Bir zamonlarda boʻlgani kabi. Oʻsha mangu Mavzudagi kabi. Keyinchalik nimaiki roʻy beribdiki, hammasi Ogʻizdan chiqqan soʻzlar samarasi edi	Qaqrab ketgan jarliklaru suvi qurigan soyliklarda rizq ilinjida xoʻrak izlab chiqqan tulkinning joniga toʻzim bersin. U yerteshar mayda jonivorlarning u yoqdan-bu yoqqa gʻizillab chopib oʻtishini

[Aytmatov 2016: 13]	kuzatib ta'qib qilar, gox yumronqoziq inini shosha-pisha kavlay boshlar, goh o'yib ketgan eski jarlik ichida berkinib yotgan kichkinagina qo'shoyoqning nihoyat tashqariga sakrab chiqishini poylab yotardi [Aytmatov 2019: 12].
“Qulayotgan tog‘lar”	“Qiyomat”
Hammaga va har qaysi davrga tegishli o'zgaras bir haqiqat mavjud. Qismati nimaligini, peshonasiga nima bitilganini oldindan bilishga hech kimning ixtiyori yo'q, — kimga nima yozilganini faqat hayotning o'zi ko'rsatadi, yo'q esa qismatning kismatligi qolarmi... [Aytmatov 2016: 3].	Qishning qisqa kuni norasta nafasiday birpasgina ilib turdi-yu, tog'larning kungay betlarida ko'p o'tmay havoning avzoyi buzildi, muzliklardan sovuq shamol izg'idi, dara-o'ngirlarga erta tushgan xufton qorong'iligi shitob bilan yoyildi, qor-quyunli kechaning izg'irin sovug'i turdi. [Aytmatov 2015: 3].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bu badiiy unsurlar zamonaviy romanlar syujetining asosiy voqealariga xalal berish bilan birga muallifga syujet chiziqlarini bir-biriga bog'lash va asar badiiy zamonini boshqarish imkonini beradi. Retardatsiya usulidan foydalanishda Ch.Aytmatov va N.Norqobilov uslubiga oid o'ziga xosliklarni istagancha keltirish mumkin, bular o'z original uslubiga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi. “Dashtu dalalarda” va “Qoraqayun” romanlarida folklor va xotiralar xronotopi zahirida inson va jonzot ruhiy olami parallelizmi, ijtimoiy muammolarning badiiy talqini keltirilgan. Milliy mentalitet, qahramonlarning ma'naviy-ruhiy olami, orzu-intilishlarining turfaligidagi o'ziga xoslikdan tashqari, N. Norqobilovning individual tasvir uslubi, voqealarni tanlash tamoyili mavjud. Romanlari xronotopida adib tug'ilgan yurt nafasi ufurib turadi, bu o'z navbatida, voqealar dinamikasining milliy xronotop negizida harakatlanishini ta'min etgan. Zamonaviy romanlarda syujetdan tashqari elementlar: lirik chekinish, portret, peyzaj tasviri, personaj xarakteristikasini berish, qahramon o'tmishi haqida hikoya qilish, kiritma voqealar, rivoyat va afsonalardan foydalanishda Ch. Aytmatov va N. Norqobilov uslubida mushtarak jihatlar va farqli xususiyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

Aytmatov Ch. Asrni qaritgan kun (Chingizxonning oq buluti, Tangriga tavallo): roman. / Rus tilidan Asil Rashidov va Ibrohim G'afurov tarjimasi. — Toshkent: Sharq, 2019. — 560 b.
Aytmatov Ch. Kassandra tamg'asi: Falsafiy roman. / Ruschadan Suyun Qorayev tarjimasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. — 352 b.

- Aytmatov Ch. Qiyomat: roman. / Rus tilidan Ibrohim G'afurov tarjimasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. — 432 b.
- Aytmatov Ch. Qulayotgan tog'lar: roman. / Rus tilidan Ibrohim G'afurov tarjimasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. — 432 b.
- Botirova Sh. Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlari misolida): Filol. fan. fals. d-ri (PhD) ... diss. — Qarshi, 2019. — 156 b.
- Murodov G., Temirova D. Tarixiy romanda syujet muammosi. — Toshkent: Fan, 2008. — 42 b.
- Norqobilov N. Dashtu dalalarda: roman. — Toshkent: O'zbekiston, 2009. — 224 b.
- Norqobilov N. Qoraqayun: roman. — Toshkent: O'zbekiston, 2016. — 222 b.
- Umurov H. Qahramon ma'naviy olami va epiklik. — Toshkent: Fan, 1995. — 48 b.
- Бахтин М. М. Литературно-критические статьи / Сост. С. Бочаров и В. Кожинов. — М.: Худож. лит., 1986. — 287 с.
- Белокурова С. П. Словарь литературоведческих терминов. 2005. — URL: https://literary_criticism.academic.ru/314/
- Зунделович Я. Литературная энциклопедия: Словарь литературных терминов: В 2-х т. / Под ред. Н. Бродского, А. Лаврецкого, Е. Лунина, В. Льва-Рогачевского, М. Розанова, В. Чешихина-Ветринского. — Москва; Л.: Изд-во Л. Д. Френкель, 1925. — URL: <https://rus-literature-enc.slovaronline.com/4547>
- Кубдашева К. Б. Описательный уровень структурно-семантического комплекса. — URL: http://www.rusnauka.com/38_NIEK_2014/Philologia/8_181771.doc.htm/
<https://poisk-ru.ru/s12318t3.html>
- Шодиев Н. Горизонты эпоса: Худож.-эстет. богатство эпической прозы литератур Средней Азии и Казахстана. — Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1986. — 174 с.

References

- Aitmatov, C. (2019). *Asrni qaritgan kun (Chingizxonning oq buluti, Tangriga tavallo) [The day that lasts more than a century]*. Tashkent: Sharq. (In Uzbek)
- Aitmatov, C. (2016). *Kassandra tamg'asi [The Cassandra mark]*. Tashkent: Yangi asr avlodi. (In Uzbek)
- Aitmatov, C. (2015). *Qiyomat [The day of judgment]*. Tashkent: Yangi asr avlodi. (In Uzbek)
- Aitmatov, C. (2016). *Qulayotgan tog'lar [Falling mountains]*. Tashkent: Yangi asr avlodi. (In Uzbek)
- Bakhtin, M. M. (1986). *Literaturno-kriticheskie stat'i [Literary-critical articles]*. Moscow: Khudozhestvennaya literatura. (In Russian)
- Belokurova, S. P. (2005). *Slovar' literaturovedcheskikh terminov [Dictionary of literary terms]*. Retrieved November 4, 2025, from https://literary_criticism.academic.ru/314/ (In Russian)

- Botirova, Sh. (2019). *Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm* [Artistic psychologism in modern Uzbek novels]. Karshi: [Publisher not specified]. (In Uzbek)
- Kubdasheva, K. B. (2014). *Opisatel'nyi uroven' strukturno-semanticheskogo kompleksa* [Descriptive level of the structural-semantic complex]. Retrieved November 4, 2025, from http://www.rusnauka.com/38_NIEK_2014/Philologia/8_181771.doc.htm and <https://poisk-ru.ru/s12318t3.html> (In Russian)
- Murodov, G., & Temirova, D. (2008). *Tarixiy romanda syujet muammosi* [The problem of plot in the historical novel]. Tashkent: Fan. (In Uzbek)
- Norqobilov, N. (2009). *Dashtu dalalarda* [In the steppes and fields]. Tashkent: O'zbekiston. (In Uzbek)
- Norqobilov, N. (2016). *Qoraqayun* [Black sheep]. Tashkent: O'zbekiston. (In Uzbek)
- Shodiev, N. (1986). *Gorizonty eposa: Khudozhestvenno-esteticheskoe bogatstvo epicheskoi prozy literatur Srednei Azii i Kazakhstana* [Horizons of the epic: Artistic and aesthetic wealth of epic prose of the literatures of Central Asia and Kazakhstan]. Tashkent: Izd-vo literatury i iskusstva. (In Russian)
- Umurov, H. (1995). *Qahramon ma'naviy olami va epiklik* [The spiritual world of the hero and epicness]. Tashkent: Fan. (In Uzbek)
- Zundelovich, Ya. (1925). *Literaturnaya entsiklopediya: Slovar' literaturnykh terminov* [Literary encyclopedia: Dictionary of literary terms]. Moscow–Leningrad: L. D. Frenkel. Retrieved November 4, 2025, from <https://rus-literature-enc.slovaronline.com/4547>